
KULOLCHILIK MAHSULOTLARI GERMANIYAGA JO'NATILMOQDA

Yangi O'zbekiston - yangi imkoniyatlar

Rishton kulolchiligi kun sayin dunyo mamlakatlarini zabt etib bormoqda. Bugungi kunda kulolchilik mahsulotlari dunyoning ko'plab mamlakatlari bozorlarida sotilayotgani so'zimizga isbot bo'la oladi. Rishtondan chetga eksport qilinayotgan mahsulotlar viloyatning salmoqli qismini tashkil qilayotgani ham bu yurt yoshlarining g'ayrat - shishoatlari oshganidan darak beradi. Birgina "Mingboshi keramik" oilaviy korxonasining o'zi AQSh, Rossiya va qo'shni mamlakatlarga Rishton kulolchilik mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Bundan bir necha yil oldin Rishton kulolchilik mahsulotlari Germaniya bozorida sotiladi, desak ishonarmidingiz? Bunga ko'pchilik ishonmas edi. Bugungi kunda mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar natijasida Rishton kulolchiligi Germaniyani zabt etish arafasida turibdi.

"Mingboshi keramik" oilaviy korxonasi rahbari Shokirjon Ahmadjonovning ma'lum qilishicha, ushbu korxonadan ishlab chiqilgan mahsulotlar Germaniyaga jo'natildi. - Prezidentimizdan davlat mukofotini olganim menga yanada ilhom bag'ishlamoqda. Takror aytishdan charchamayman, maqsadimiz eksport geografiyasini kengaytirish, Rishton kulolchiligini butun dunyo tanitish. Bu borada tinimiz izlanishdamiz. Mana bugun mahsulotlarimiz Germaniyaga jo'natilmoqda. Bu yerga nafaqat milliy mahsulotimiz balki bizning urf-odatimiz, madaniyatimiz ham kirib bormoqda. Umid qilamizki, germaniyalik tadbirkorlar bilan ham yaqin orada shartnoma imzolaymiz. Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-29 06:33:29